

# **MAKTABGACHA YOSHIDAGI NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING TADQIQIY FIKIRLASHNI RIVOJLANTIRISHIDA "BLOOM" KUBIGIDAN FOYDALANISH**

**Fayziyeva Shaxlo Nurpulloevna**

*Olmazor tumani, 94-sonli maktabgacha ta'lism tashkiloti defektolog*

**Tadjiyeva Feruza Ataxanovna**

*Yakkasaroy tumani, 155-sonli maktabgacha ta'lism tashkiloti defektolog*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lism tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son [garoriga](#) muvofiq, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi taaluqli qator qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsad qilib qoyildi.

Zamonaviy pedagog oqituvchi- logoped oldida o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lism dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lism va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish maqsasida bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'lism-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlash vazifasi turadi.

Shunday ekan biz o'z faoliyatimiz davomida nafaqat ko'p yillar davomida samara berib kelayotgan usul va uslublardan valki 21- asr bolasining talablarini qondirgan xolda noan'nanaviy, interaktiv, AKT tehnologiyalardan foydalanishimiz darkordir.

Bugungi kunda ta'larning asosiy ustuvor yo'nalishi uning shaxsga yo'naltirilganligidir. Pedagogning vazifasi esa tayyor bilim va ko'nikmalarni etkazish emas, balki bolaning shaxsiyatini rivojlanterish uchun sharoit yaratishdir.

Savol tug'iladi: buni qanday bajaramiz va qaysi usullar yordamida qilish kerak? Bunga zamonaviy pedagogga turli innovatsion uslub va texnologiyalar yordam beradi.

Bu orinda 2016- yilda Davosdagi Butunjahon forumida e'lon qilingan "Davos 2020" kompetensiyalaridan kelib chiqadigan XXI asr "4K" ning asosiy kompetensiyalarini eslatib o'tish o'rinni bo'lardi. Dastlab, ular 10 ta bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan ular qisqaroq tushunchalarga aylantirilgan. Shunday qilib,



zamonaviy insonning quyidagi fazilatlarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan "4K modeli" paydo bo'ldi:

- Tanqidiy fikrlash
- Ijodkorlik
- Kommunikatsiya maxorati
- Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi

Mazkur model mamlakatimizda ta'lif sohasiga faol tatbiq etilmoqda. Buni tasdig'ini "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" da ko'rsatilgan kichik sohalaridan birida aynan tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat ko'rishimiz mumkin. Biz esa zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilib, bolalar bilan ishlashda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasidan foydalanaman.

Ushbu texnologiya rejimida ishlagan holda, pedagog asosiy ma'lumot manbai bo'lishni to'xtatadi va tanqidiy fikrlashni rivojlanish texnologiyasi usullaridan foydalangan holda bolalar bilan mashg'ulotlarni birlgilikda va qiziqarli qidiruvga aylantiradi.



Sizning e'tiboringizga amerikalik olim va psixolog Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlashni rivojlanish texnologiyasi dan birini taqdim etmoqchiman, bu Bloom kubigidir. Benjamin Blum pedagogik faoliyat uchun yagona algoritmlar tizimining muallifi sifatida tanilgan.

U taklif qilgan nazariya ta'lif maqsadlarini uchta blokga ajratadi: kognitiv, psixomotor va affektiv.

Oddiy qilib aytganda, bu maqsadlar "Men bilaman", "Men yarataman" va "Men qila olaman" bloklari bilan belgilanishi mumkin. Bolaga tayyor bilim taklif etilmaydi, balki muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi. Bola o'z tajribasi va bilimidan foydalanib, bu muammoni hal qilish yo'llarini topishi kerak.

Kub hajmli bo'lib, uning yon tomonlarida so'zlar yozilgan (yoki diagrammalar rasmlar chizilgan, bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng maqbuldir). Ular javob uchun boshlang'ich nuqtadir. Shunday qilib, bolaning o'zi o'z tajribasi va bilimiga asoslanib, javob berish paytida muammoni hal qilish yo'llarini qidiradi.

Bloom kubigidan foydalanish qoidalari juda oddiy:

- Bolalar bilan ta'limi faoliyat rejalashtiriladi



- 
- Pedagog yoki bola kubikni tashlaydi.
  - Tushgan kubik tarafi qaysi savolni berish kerakligini ko'rsatadi.
  - Kubning barcha taraflari ishlatalmaguncha faoliyat davom ettiriladi.

Oddiy qog'ozdan yoki qattiq materialdan kub tayyorlanadi, uning yon tomonlarida qoyidagi 6 ta tushuncha yozilgan bo'ladi:

1. «Nomini aytin» olingan bilimlarni qayta tahlil qilish natijasida berilgan savolga javob berishni nazarda tutadi
2. «Nima uchun»- sabab-oqibat munosabatlarini ko'rish va shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish.
3. «Tushuntiring» - fikrlashni rivojlantirish maqsad qilib qoyiladi. Kategoriyali savollarga aniqlik kiritiladi. Bola berilgan mavzuning barcha jihatlariga e'tibor berishi kerak.
4. «Oylab toping»- aqliy faoliyatni faollashtirish, olingan bilimlarni tahlil qilish va baholash. Ushbu turkumdagи savollar ijodiy vazifalarni o'z ichiga oladi.
5. «Taklif qiling » - shaxsnинг hissiy tomonini rivojlantirish. Kategoriyali savollar bolaga shaxsiy tajribaga asoslangan shaxsiy munosabatlarini ifodalash imkoniyatini beradi.
6. «Tahmin qiling»- olingan bilimlarni amaliyatda qo'llash qobiliyati. Bola o'z g'oyalalarini taklif qilishi, tushuntirishi, har qanday vaziyatni hal qilishi mumkin.

"Bloom kubigi" barcha guruhlarda va barcha ta'lim yo'nalishlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar mavzuning mohiyati to'g'risida allaqachon tasavvurga ega bo'lganlarida, ushbu uslubni umumlashtiruvchi guruholi mashgu'lotlar va "Nutq va til" rivojlanish markazidagi ta'limiy faoliyat davomida qollaniladi. Har qanday materialni o'rganish bosqichida kub bilan guruhda bolalar birgalikda savollarga javob berishadi. Ushbu tehnologiyani qollash jarayonida katta guruh bolalari bilan yangi mavzuni o'zlaashtirish jarayonida muammoga duch kelamiz. Chunki kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning bilimlari juda kam, shuning uchun ular uchun yangi mavzu bo'yicha javoblarni shakllantirish hali ham qiyin.

Ular ko'pincha xayollariga kelgan birinchi fikrga aytishadi. Ammo javoblarni birgalikda qidirish davomida boallarda jamoa bilan ishlash, bir-biriga yordam berish ko'nikmasi rivojlanadi.

#### **"Yomg'ir" mavzusida Bloom kubidan foydalanishga misol keltiramiz.**

- Nomini aytin : Qanday yomg'ir yog'adi: mayin, suyuq, nam, iliq, muzli.
- Tushuntiring : Yomg'irni boshqa tabiat hodisalari bilan solishtiring. Misol uchun, qordan farqli o'laroq, bahorda, kuzda, yozda, qishda esa juda kamdan-kam hollarda yomg'ir yog'adi.



➤ Oylab toping: "Yomg'ir" so'zini nima bilan bog'laysiz? Masalan, qayg'u va agar quruq yozda uzoq vaqt yomg'ir bo'lmasa, aksincha, quvonch, zavq.

➤ Taklif qiling: Yomg'ir haqida nima deya olasiz? Yomg'ir - bu osmonda to'plangan suv.

➤ «Tahmin qiling»:- Yomg'irdan odamlar, hayvonlar va o'simliklar hayotida qanday foydalanish mumkin. Uni yopiq o'simliklarni sug'orish, yuvish, hayvonlarning chanqog'ini qondirish va boshqalar uchun yig'ish mumkin.

➤ «Nima uchun»- Yomg'irning barcha ijobiy va salbiy tomonlarini ayting: Tuproqni namlaydi, o'simliklarni oziqlantiradi, lekin yomg'ir suv toshqiniga olib kelishi mumkin va hokazo.

Shunday qilib, "Bloom kubigi" texnikasidan foydalanish nafaqat tanqidiy fikrlash elementlarini shakllantirishga yordam beradigan innovatsion amaliyot bo'lib, balki bolalarda diqqatni jamlagan holda olingan bilimlarni tizimlashtirishga imkon beradigan bilish jarayonlarini rivojlantirish usuldir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2017/02/13/innovatsionnaya-tehnologiya-kubik-bluma>
2. <https://multiurok.ru/files/master-klass-ispolzovanie-kubika-bluma-v-rabote-s.html>
3. <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabortki/502979-ispolzovanie-tehnologii-kubik-bluma-v-poznava>

